

OLTIN BALDOQ

Odamda, harchand uringani bilan o'zgartirolmaydigan g'alati fe'l-atvorlar bo'ladi. Mening ham qiziq odatim bor: birovni ranjitib qo'ysam (adolatli xafa qilgan bo'lsam ham) o'sha odamdanda ko'proq o'zimning dilim vayron bo'lib yuradi. Bu odat onamdanda yuqqan shekilli.

Oyim bizlarga hech qattiq gapirmas, mabodo xafa qilib qo'ysa birpasdan keyin o'zi yalinar edi. Faqat bir marta meni qarg'agan, yomon qarg'agan. O'shanda ayb kimda bo'lganini hali ham bilmayman.

Bahor kirib, oftobning iliq nurlari yelkani qizitadigan bo'lib qolgan kunlar edi. Bodom tagida o'tirib varrak yasashga tushdim. O'rikning yelimi qog'ozga yopishsa qamishga yopishmaydi, qamishga yopishsa qog'ozga... Burnimni tortib-tortib urinib yotibman. Oyim nariroqda, tagiga po'stak tashlab, kir yuvyapti. Dadam «kambag'albop kiyim» deb aka-ukalarga chiy-duxoba shim olib bergan. Chiyduxoba asli yaxshi narsa-yu, chillak o'ynagandami, koptok tepgandami, bir dumalasang, ora-orasiga loy kirib ketishi yomon. Uch kunda bir yuvaverib, onamning esi ketadi. (Xuddi shu chiybaxmal zamonlar o'tishi bilan butun Yevropaga moda bo'lishini dadam xayoliga ham keltirmagan bo'lsa kerak. Uning uchun chiyduxoba «kambag'albop kiyim» edi, xolos.) Xullas, oyim unisini olib bunisini qo'yib, shimlarni yuvar, har siltab ishqaganda jomashovdan ko'pik sachrar, atrofni sovun hidi tutib ketgan edi. Uning ro'parasida Sepkilli xola to'nkarilgan paqir ustida o'tirardi.

Sepkilli xolani yomon ko'raman. O'zinimas, qizini. «Saini senga beraman, olsang ham olasan, olmasang ham, — deydi, — olmasang tugun-tersagi bilan uyingga opchiqib tashlayman, kichkinaligingda qulog'ini tishlagansan», deydi. Saini qulog'ini tishlagandan ko'ra kuchugimning qulog'ini tishlayman. Saida yomon: o'g'il boladan battar. Lanka tepayotganda bir urib Toyning burnini qonatgan.

Sepkilli xola to'nkarilgan paqir ustida o'tirib nuqul hasrat qilar edi:

—Kechasi bilan tishim o'lgur shundoq og'ridi, shundoq og'ridi, jonimni qo'yishga joy topolmadim. — U sepkil bosgan lunjini silab qo'ydi.

—Isiriq damlab chayqamadingizmi? — deb maslahat berdi oyim hamon engashib kirni g'ijimlar ekan.

—E, hammasini qildim! — Sepkilli xola yana inqilladi. — Achchiqtoshgayam g'arg'ara qildim. Qani bosilsa.

Ikkovlari bir zum jimib qolishdi.

—Uff! Isib ketdim! — Oyim ko'pikli qo'lini sidirib, yoqasi bo'g'iq to'rko'ylagini yechdi-da, chekkaga tashladi.

—O'lmagan qul, bahorgayam chiqdik, — Sepkilli xola xo'rsindi. — Shu yil kuzda Hakimimning boshini ikkita qilib qo'ysak degandik. To'y qilish osonmi? Hali unisi yetmaydi, hali bunisi... Otasining ahvoli bu bo'lsa...

Sepkilli xola eridan ko'p shikoyat qilardi. Chindan ham Isroil mo'ylov ko'p

ichadi. Ishining tayini yo'q. Buning ustiga ichib oldimi, tamom, uy ichini tiriqtirib quvadi. Sepkilli xola ko'pincha Saidani dikonglatib biznikiga qochib chiqadi. Yarim kechada, eri uxlaganidan keyin sekin uyiga chiqib ketadi.

—Hakimjon hali yosh-ku. — dedi oyim o'ychanlik bilan. — Bu yil bo'lmasa, yanagi yilga bo'larar to'yi...

—Shundoq deysizu quda tomon shoshiryapti. — Sepkilli xola yana inqilladi. —Shu o'lgurni oldirib tashlab qutulaman shekilli. Kecha dadasiga tish qo'ydirsammikan, desam, otangni xumga ko'mib qo'ygan tillalarini olib kelib qo'ydiraver, deydi... Hayronman, bisotimdagi bitta bilaguzugimni beraman shekilli. Og'zimni o'radek ochib yursam uyat bo'lar.

...Varragimni yelimlab bo'lib. endi qamishini tortib bog'lagan edim, qars etib sindi. Qamish sinsa mayli-ya, qog'ozniyam yirtib yubordi. O'zim katta akamga yalinib-yalinib arang olgan edim. Tamom, Hammasi tamom bo'ldi. Alamimdan yig'lab yuboray dedim. Varrakni bir tepgan edim, yerga yopishib qoldi.

—Ha? — dedi Sepkilli xola. — Nima qildi, kuyov bola?

—Sindi.

—Akangga ayt, boshqasini yasab bera qolsin. Yasaydi-ya, yasaydi! Mendan boshqa ishi yo'qmi?

Maktabdan beri kelmaydi-ku. Alam bilan varrakni yana bir tepdim-da, ko'chaga chiqib ketdim. Shu ketgancha, kun botganda qaytib keldim. Hovlidagi arqonda qator qilib ilingan shimlar, ko'ylaklar... Bir chekkada bizning «qushim boshi» o'ynaganda loyga qorishaverib, unniqib kctgan do'ppi ham qiyshayib turibdi. Oyim nimqorong'ida bodom tagida timirskilanib yuribdi.

—O'lsin, echkiyam sog'ilmadi, — dedi meni ko'rib. — Yur, ushlab tur.

Echkimiz yuvosh bo'lgani bilan ba'zan «jini» tutib qolar, sog'ib bo'lguncha tipirchilab, odamni bezor qilardi. Shunda kichik akammi, menmi birontamiz cho'nqayib uning orqa oyoqlaridan mahkam ushlab turishga majbur bo'lardik. Hech ham yoqmaydigan bu mashg'ulot bugun mening zimmamga tushishini bilib, qochib qolishni mo'ljallab turgan edim, oyimning jahli chiqib ketdi:

—Sen qachon odam bo'lasan, zumrasha! Yoshing to'qqizga chiqibdi-yu, ko'chada shataloq otishdan beri kelmaysan! Hech foydang tegmasin, xo'pmi!

—To'qqizdamas, sakkizda, — dedim chiyillab.

—O'chir ovozingni! — Oyim bir dag'dag'a qilgan edi, istar-istamas borib echkining oyog'idan ushladim. Echki bari bir echki-da! Pitir-pitir qilgani ham mayli-yu, oyim sog'ayotganida, iyib ketsa qiladigan xunuk «qilig'i» bor. Keyin yarim soat ko'ylakning oldini tozalashga to'g'ri keladi...

Oyim naridan-beri ishini tugatdi-da, buyurdi:

—Yechib yubor anovi savillarni!

Uloqchalarni arqondan bo'shatishim bilan ikkalasi dikonglab onasining yelini

yopishdi. Oyim bo'lsa sutni tovoqlarga soldi-da, yana bodom tagida timirskilanib bir nimani qidira boshladi.

—Nimani qidiraysiz? — dedim yaqin borib.

Boya urishgani uchun o'zi achinib turgan ekan shekilli, yelkamga qoqdi.

—Hech nima. Bor, ovqatingni ye, qorning ochib qolgandir. — Keyin birdan qaddini rostladiyu xitob qildi. — Voy, qayoqdan kun chiqdi?! Assalomu alaykum!»

O'girilib qaradimu uch-to'rt qadam narida turgan ammamga ko'zim tushdi. Oyim mehmonni ko'rmay qolganidan xijolat chekib quchoq ochib ko'rishdi. Ammam juda chiroyli, yuzida xoli bor, qosh-ko'zi chaqmoqdek xotin. Ammo juda shaddod. Har gapini xuddi mix qoqqandek tarsillatib gapiradi. Oyim undan qo'rqadi. Kelganda hurmatini joyiga qo'ymasini-chi, o'zini qayerda ko'rarkan.

—Ha? — dedi ammam yo'g'on tovushda. — To'rvasini yo'qotgan gadoydek talmovsirab qopsiz, kelinposhsha?!

—Yo'q, opa, o'zim... — Oyim chaynalib qoldi. — Ziragim o'lgurning bir poyi tushib qopti. Haligina qulog'imda turuvdi.

Qarasam, oyimning o'ng qulog'idagi ziragi yo'q. Oyim kattakon oltin oybaldog'ini juda avaylar, qaynonamdan qolgan yodgorlik, deb maqtanib yurardi.

—Mayli, topilib qolar, — dedi u sekingina. — Shu yerga tushgan bo'lsa qayoqqa ketardi.

—Hmm! — Ammam shunday tahdidli bosh chayqadiki, qorong'i bo'lsa ham qoshi chimirilib ketganini aniq ko'rdim. — Ketsa, boydan ketibdi, deng!

Belingiz qayishib topmaganingizdan keyin joningiz achimaydi-da, kelinposhsha!

Ammam qo'lidagi tugunni menga tutqazib, o'zi ham maxsili kalishining uchi bilan yerni titkilav boshladi.

—Qo'ying, opajon, — oyim uning yelkasiga ohista kaftini qo'ydi. — Yuring uyga, halizamon ukangiz kelib qoladilar.

—O'zi shunaqa bo'ladi, — dedi ammam yerdan bosh ko'tarmay. — Ot topadi, eshak yeydi! — Keyin birdan qaddini rostladi-da, oyimning ko'ziga tikilib so'radi. — Kim kirgan edi oldingizga?

—Hech kim. — Oyim bir zum talmovsirab turdi-da, sekin qo'shib qo'ydi. — Hali peshinda Sharopat opa keluvdi. Shu...

—Sharapatmi? — Ammam «tushunarli» degandek istehzo bilan labini burdi. — Bo'пти, omin oblohu akbar!

Hali oyimning oldida paqir to'nkarib o'tirgan Sepkilli xola ko'z o'ngimga keldi.

—Qo'ying, — dedi oyim yalingudek bo'lib. — Bechorani unaqa demang. Bir poy zirakni nima qiladi?

—Pishirib yeydi! — Ammam jahl bilan qo'l silta-di. — Qo'li egriligini bilasiz, o'lasizmi ehtiyot bo'lsangiz?

—Yo'g'-e, — dedi oyim yana ming'illab. — Bir poy zirakni nima qiladi?

—Yana gapiradi-ya! — Ammamning ovozi tahdidli ohangda balandladi. — Mana shu bir poy zirak qancha turishini bilasizmi? — dedi oyimning chap qulog'idagi oybaldoqni barmog'i bilan nuqib. — O'zi-ku to'yga borsa, qo'liga ilingan narsani tuguniga tiqadi.

Oyim nima qilarini bilmay, javdirab qoldi. Dadam ikkalasi Sepkilli xolaning g'alati qiliqlarini gaplashishganini eshitganman. To'ylarda laganmi, piyolami yo'qolsa Sepkilli xolaning uyidan topishar. xola «esidan chiqib» uyga olib ketgan bo'lardi. Hozir shuni esladimu goh oyimga, goh ammamga qarab qoldim. Sepkilli xolani juda yomon ko'rib ketdim.

—Ukangiz eshitmay qo'ya qolsinlar, — oyim yana yalindi. — Topilib qolar.

—Go'rni topiladi! — Ammam qandaydir g'olibona qiyofada uy tomon yurdi. Ketidan kuymangancha oyim ham ergashdi.

Ertasiga ertalab tursam, oyim yana bodom tagini sinchiklab ko'zdan kechiryapti. Kechasi bilan uxlamagan shekilli, ko'zlari qovjiragan... Men ham yordamlashdim. Biroq oybaldoq ertasiga ham, indiniga ham topilmadi. Oyim dadam bilmasligi uchun zirakning ikkinchi poyini ham imi-jimida allaqayerga yashirib qo'ya qoldi.

... Ehtimol, oradan ikki oycha o'tib Sepkilli xola tilla tish qo'ydirmaganida, buning ustiga xuddi o'sha kuni ammam yana kelib qolmaganida, zirak ham. bu gaplar ham unutilib ketgan bo'lardi.

Ayni yoz chillasida ammam tag'in keldi. Yoz chillasi ekani shuning uchun yodimda qolganki, o'sha kuni ammam ikki bosh chillaki uzum olib keldi. Shaharda turishsa ham ularnikida tok bor edi. Akalarim bilan bir g'ujum-bir g'ujumdan talashib yedik. Qishloqni bilasiz, birovnikiga mehmon kelsa, albatta qo'shnilar chiqadi. O'sha oqshom birinchi bo'lib Sepkilli xola chiqdi. Ammam bilan aylanib-o'rgilib ko'rishdi. Keyin oyimga yuzlandi.

—Yarashibdimi? — U ustki labini barmog'i bilan sal ko'targan edi, ikkita oltin tish yaraqlab kctdi. Tishlar uning sarg'ish yuziga juda yarashgan, hatto sepkili ham bilinmay ketgan edi.

—Yarashibdi, — dedi oyim sekingina. — Bilaguzugingizni berdingizmi?

Sepkilli xola negadir qizardi.

—Voy, yo'q, — dedi ko'ylagining yengini shimarib.

— Mana! Dadasi aytdilar. «Bermagin, kelingga ko'rmana qilasan», — dedilar. — U tilla tishini ko'rsatish uchun bo'lsa kerak labini buribroq jilmaydi. — Ancha insof kirib qoldi dadasiga. Hakimjonning to'yini tezlatib yubordik, ovsinjon! Xudo xohlasa, kuzda qarsbadabang bazm qilamiz.

—Asil tilla ekan! — dedi ammam achitib. — Buyursin ishqilib!

Sepkilli xola xursand, oyim nimadandir bezovta, ammam bo'lsa chimirilib o'tirardi.

—Ertalab choyni biznikida icha qoling, — deb taklif qildi Sepkilli xola.

—Yo'g'-a, men saharlab ketishim kerak! — ammam yuzini o'girdi.

Biroq u ertalab ketmagan ekan. Ammamning qattiq-qattiq gapirishidan uyg'onib ketdim.

—Birovning molidan hazar qilmagan noinsof!

Hech bo'lmasa qo'shniligingni o'ylamaysanmi! Tish yasatish uyoqda tursin, ming ko'yga solsayam, onaginamdan qolgan molni taniyman.

—E, bunaqalarda insof nima qiladi! — Bu onamning ovozi emasdi. Ko'rpaning bir chetidan mo'ralasam, mahallaning otin xolasi — semiz xotin. — Qaysi kuni Inoy cho'loqning yil oshisida ikkita choynak yo'qoldi, — dedi u hasrat qilib. — Shundan boshqa it ham olmaydi, deb o'choqboshisiga kirsam, turibdi. Tumshug'idagi chegasidan tanidim. «Ha?» desam, «Adashib kirib qolgandir-da», deydi. Ha, yer yutgur, choynakning oyog'i bor ekanmi, scnikiga o'zidan-o'zi adashib kiradigan!

—Tag'in erini maqtaganiga o'laymi? Insof kirib qolgan emish! — Ammam jahl bilan qo'lini musht qilib, xontaxtaga botirgan edi, barmoqlari shiqirlab ketdi. — O'lganda insof kiradi, o'sha bangi mo'ylovga.

Oyim choy ko'tarib kirdi.

—Qo'yinglar endi, — dedi iltijoli ohangda. — Olgan bo'lsa olgandir. Birovning qo'lidan tutmagandan keyin nima deysiz? Mayli, mingdanming roziman.

—Siz unaqa boyvachchalik qilmang, kelinposh-sha! — dedi ammam shaxt bilan. — Bolangizni kiyintiring. O'zingiz ham o'tlanib darrov oldimga tushing!

Oyim choynakni xontaxtaga qo'yarkan, goh ammamga, goh otin xolaga hayron bo'lib qaradi.

—Qayoqqa?

—Ochiq mozorga! — Ammam hammasiga oyim aybdordek piching qildi. — Mahallamizda folbin bor. Suf desa, ariqdagi suv teskari oqadi. O'shanga oboraman. Mana, otin ham guvoh bo'ladilar, qaytarma qildiramiz. Qani, bo'yniga olmay ko'rsin-chi.

Oyim boshini quyi solgancha turib qoldi. Chamasi ikkilanar edi.

—Endi, — dedi chaynalib, — ko'zdek qo'shni bo'lsak...

—Ho-o! — ammam o'rnidan turib ketdi. — Beli og'rimaganning non yeyishini tomosha qilinglar! Onaginamdan qolgan bittayu bitta yodgorlik yo'q bo'lib ketaverarkanu qo'shningizga joningiz achib qoldimi? Mening sovunimga kir yuvmabsiz hali. Haq joyida qaror topmaguncha, qo'ymayman. — U menga o'girildi-da, ovozini muloyimlatdi. — Mana, bola bilan fol ochadi. Norasta bola rostini aytadi. Borasanmi?

O'rnimdan irg'ishlab turib ketdim.

—Boraman! Boraman! - dedim baqirib.

Bo'lmasa-chi. ammamnikiga borsak, tramvayga tushamiz! Maza qilib uzum

yeyman!

Choy ichib bo'lgandan keyin, ammam, oyim, otin xola, men — to'rtovlashib yo'lga chiqdik. Besh-yog'ochga yetib borsak, bo'ldi. U yog'iga tramvayga o'tiramizu jiring-jiring qilib ketaveramiz. Maza!

Mazalikka mazaku-ya, biroq Beshyog'ochga yetib olguncha ancha gap bor-da! Do'mbrobodga chiqishimiz bilanoq botinkam oyog'imni siqa boshladi. Yechib, qo'limga olvoldim. Yozning tong pallasida yalangoyoq tuproq kechib yurishning zavqi boshqacha bo'ladi. Undek mayin, salqin tuproq barmoqlaringiz orasidan bilq-bilq otilib chiqadi. Ketaverasiz, ketaverasiz, hecham charchamaysiz.

Laylaktepadan o'tib Qozirobodga borganda qaynama buloqdan muzday tiniq suv ichdik. Keyin Chilonzor keldi. Yo'lning shundoqqina bo'yida oqish yaprog'ini chang bosgan, tikanlari «tish qayrab» turgan chakalakzor — chilon jiydalar (shuning uchun bu yerni Chilonzor deyiladi). Yo'lning ikki chetida nok ko'p — nashvati nok, tosh nok, gulobi nok. Nok hali pishmagan. Faqat tagidan o'tayotganingizda tuproqqa to'kilgan bargi tovoningizga yopishib, g'ashni keltiradi.

«Siymonko'prik»dan o'tishning o'zi bir tomosha. Terak bo'yi chuqurlikda suv qorayib oqadi. Mo'ralasangiz boshingiz aylanadi. Oyim ko'prik chetiga borishga qo'ymaydi: suv chaqirarmish, odam o'zidan-o'zi tushib ketarmish... Ko'prik o'rtasidan ot aravalar, eshak aravalar qatorlashib o'tadi. Bir tomondagisi o'tguncha ikkinchi tomondagisi poylab turadi. Aravakashlar so'kingan, eshaklar hangragan, og'zidan tupugi osilgan, ustiga qop-qop somon tog'dek uyulgan tuyalar ham o'tib qoladi. Shu ko'prikdan o'tilsa, tramvayning g'iyqillagani eshitilib turadi — uyog'i Beshyog'och.

... Ammam aytgan folbinni xuddi Acha xolamga o'xshagan lo'li bo'lsa kerak, deb o'ylagandim. Yo'q, boshqacha ekan. Tramvaydan tushgandan keyin ikki tomonidagi devorlardan pishgan o'riklar mo'ralab turgan jinko'chalardan o'tdik. Keyin gulsafsarlar o'sib yotgan allaqanday zahkash, katalakdek hovliga kirib qoldik. Yerto'la soyasida yotgan kuchukni ko'rib, to'xtab qoldim. Xuddi o'zimning gurji kuchugimga o'xshash kichkina, faqat qora etmas, oppoq ekan. Negadir akillamadi ham.

To'rttovlashib ayvonga chiqdik. Oppoq ro'mol o'ragan, keng yengli ko'ylak kiygan yumshoqqina kampir kulimsirab qarshi oldi. Shu xotinning folbin ekaniga ishongim kelmasdi.

—Aynovniy, — dedi u yuzimdan o'pib. — Muncha shirin bu bola!

Ayvon vassajuftiga to'rqovoq ilingan, to'rqovoqdagi bedana sayramas, ammo hadeb sakrar, har sakraganda sholcha ustiga allaqanday don to'kilar edi. Bedanani tomosha qilib o'tirarkanman, ammam bo'lgan voqeani tushuntirib berdi.

—Yuringlar, — dedi kampir o'rnidan turib. Keyin mening yelkamga qoqdi.

—Sen ham yur, shirin bola.

Hammamiz birgalashib devori xomsuvoq qilingan, pastak tokchalariga

barkashlar, allaqanday arabcha kitoblar taxlab qo'yilgan nimqorong'i xonaga kirdik. Kampir indamay chiqib ketdi. Ammam, oyim. otin xola, men — hammamiz shaparak ko'rpachaga tizilishib o'tirdik. Bir mahal kampir bir qo'lida kattakon chinni kosa, bir qo'lida choyshabga o'xshash oq mato ko'tarib kirdi.

—Sen bunday o'tir, shirin bola, — dedi menga imo qilib. Xonaning o'rtasiga meni o'tqazib qo'ydi. — Oyog'ingni uzatib o'tir. Yo'q, oyog'ingni ochibroq o'tir.

Kampir aytgandek qilib o'tirgan edim, u oyog'imning orasiga kosani qo'ydi. Qarasam, kosa to'la suv.

—Suvga qarab o'tir, — dedi u muloyimlik bilan. — Men duo o'qiyman, sen ko'zingga kim ko'rinsa o'shani aytasan. — Shunday dediyu ustimga choyshabni yopdi. Bir zumda hammayoqni zulmat qopladi. Kampir men tushunmaydigan allanimalarni gapira boshladi. Birpasda damim qaytib ketdi. Yuragimni vahima bosdi.

—Oyi-i-! — dedim yigiamsirab.

Kimdir yelkamga turti:

—Jim o'tir, oying qochib ketgani yo'q.

Ammamning zardali ovozi eshitib, damim ichimga tushib ketdi. Ko'zim endi g'ira-shira ko'ra boshladi. Biroq, kosada xira yaltirab turgan suvdan boshqa narsa ko'rinmas edi. Kampir hamon bir ohangda allanimalar der, ko'z o'ngimda xira yiltirayotgan suvdan bo'lak narsa ko'rinmas edi. Oradan ancha o'tdi. Qimirlamay o'tirganim uchun bo'ynim, oyog'im og'riy boshladi. Meni shuncha azobga qoldirgan ammamni ham, Sepkilli xolani ham yomon ko'rib ketdim. Sepkilli xola oyimning ziragini o'g'irlamaganida hozir maza qilib o'ynab yurgan bo'lardim. Shularni o'ylab o'tiraverdim, o'tiraverdim... Bir mahal qarasam, suv ichida Sepkilli xola mo'ralab turibdi. NuquI kuladi. Hatto yuqori labi ostidagi ikkita tilla tishigacha aniq ko'rdim. Jonholatda baqirib yubordim:

—Sepkilli xola! Ana, Sepkilli xola!

Birpasda ustimdagi choyshabni olishdi. Qo'rqqanimdanmi, nafasim qaytgani uchunmi, terlab ketgandim.

—Gumoningiz to'g'ri ekan, — dedi folbin kampir oyimga emas, ammamga qarab. — Xudo xohlasa, olgan molini qaytarib beradi, eshonoyi!

—Ana, aytmadimmi! — ammam g'olibona qiyofada atrofida qilarga birma-bir qarab chiqdi. — Borib itning kunini boshiga solmasam yurgan ekanman!

O'sha kuni ammamnikida yotib qoldik. U o'zi aytganidek, ertasiga Sepkilli xolaning boshiga «itning kunini soldi». Uch xotin meni yetaklab qo'shninikiga chiqishdi. Sepkilli xola supaga bo'yra yozib paxta savab o'tirgan ekan. Savag'ichni har urganda gup-gup etgan tovush chiqadi, chang ko'tariladi. Eshikdan kirib kelayotgan mehmonlarni ko'rib, savag'ichni ushlagancha dik etib o'rnidan turdi. Endi ko'rishmoqchi bo'lib quchog'ini yozgan edi, ammam bobillab berdi:

—Birovning moliga tish qo'ydiradigan haromxo'r bilan ko'rishmayman!

Sepkilli xola qo'lidagi savag'ichni osiltirgancha talmovsirab qoldi.

—Bu... bu nima deganingiz, eshonoyi? — dedi rangi o'chib.

—Bu deganim shuki, o'g'irlagan narsangizni joyiga qo'ying!

Sepkilli xolaning rangi battar o'chib ketdi.

—Nimani o'g'irlabman? — dedi ovozi qaltirab. — Ayting, nimani olibman?

—E qo'ying-e! — ammam jahl bilan qo'l siltadi. — Kelinimning ziragidan tish yasatib olib, tag'in o'zini go'llikka solib o'tiribdi. — U otin xolaga yuzlandi. — Mana, guvoh! Norasida bola bilan fol ochirdim. Aniq-taniq sizni aytdi.

—Voy o'lmasam! — Sepkilli xolaning qo'lidan tayog'i tushib ketdi. — Bu qanaqa tuhmat! — dedi yig'i aralash. Keyin oyimga yuzlandi.

—Uyalmaisizmi, ovsin poshsha! Mana, ne niyatda o'tiribman. Agar ninangizga tekkan bo'lsam, niyatimga yetmay! — Keyingi so'zlar uning bo'g'izidan yig'i aralash otilib chiqdi. — To'rtta bolamning o'ligini ustida o'tiray, xo'pmi!

—Voy, ovsinjon, voy gapingiz qursin! — dedi oyim ovozi titrab. — Qaytib oling gapingizni! Olgan bo'lsangiz ham mingdan-ming roziman!

—E, yana, gapiradi-ya! Boyvuchcha bo'lmay tusingni yel yesin! — Ammam shahd bilan burildi-da, nari ketdi. Darvoza oldiga borganida orqasiga qayrilib qaradi. — Yaxshisi bo'yingizga oling, bo'lmasa, qiyomatda azobini tortasiz!

Zum o'tmay ammam bilan otin xola chiqib ketishdi. Sepkilli xola hamon piqillab yig'lar, oyim supa oldida boshini xam qilgancha mung'ayib turar edi.

—Iloyo tuhmat qilgan tuhmat balosiga uchrasin!— dedi Sepkilli xola yig'lab. — Iloyo niyatiga yetmasin!

—Qo'ying, ovsinjon. — Oyimning o'zi ham yig'lab yuboray deb turardi. —Xudoyo o'sha bir poy zirak o'lsin! Ko'nglingizga olmang, jon ovsinjon!

—Tuhmat balosiga uchramasa, rozimasman! — Sepkilli xola shunday dediyu yig'lagancha uyiga kirib ketdi.

Oyim bir zum supa oldida turdi-turdida, birdan menga o'shqirdi:

—Nimaga serryib turibsan? Yo'qol ko'zimdan, juvonmarg!

Yomon bo'ldi. O'sha kundan boshlab Sepkilli xola oyim bilan yuzko'rmas bo'lib ketdi. Ammo eng yomoni yana ikki oycha o'tgach, salqin tushgan kunlardan birida bo'ldi.

O'sha kuni maktabdan qaytsam, oyim sandiq ustiga muk tushib o'tiribdi. Issiq kiyimlarni sandiqdan olgan shekilli, uy ichini kuya dorining hidi tutib ketgan, bumazi ko'ylaklar, choponlar, quloqchinining ipi uzilgan telpaklar yer bilan bitta bo'lib yotibdi. Yig'layverib, oyimning ko'zlari shishib ketgan. Dadam urgan bo'lsa kerak, deb qo'rqib ketdim. Sekin oldiga keldim. U bo'lsa qayrilib qaramadi. Qo'lidan ushlagan edim, oyim ilon chaqqandek qo'lini tortib oldi.

—Sen bolani yer yutsa bo'lmasmidi! — dedi g'azabdan ko'zi yonib. — Shu kuningdan ko'ra o'lib qo'ya qolsang bo'lmasmidi, yer yutkur!

Oyim hech qachon bunaqa qarg'amagani uchunmi, yig'lab yuboray dedim.

Ammo shuncha yomon gapni to'satdan eshitganimga karaxt bo'lib qolgan edim.

—O'shanda nega unaqa deding, bo'yginang lahatda chirigur! — dedi u yana dag'dag'a bilan.

—Qachon? Nima dedim?

—Folbinnikida, go'rso'xta, folbinnikida! — Oyim ovozi boricha chinqirdi. — Nega Sepkilli xolamni ko'rdim, deding?

—Nima qilay? — dedim alamdanda chiyillab.

Ko'zinga ko'ringanini aytdim-da!

—Mana-ku, ko'zginang teshilgur, mana-ku! — Oyim kaftidagi allanimani yerga uloqtirdi. Oltin baldoq yerga tushib jiringlab sakrab ketdi.

—To'rko'ylagimga ilinib qolgan ekan-ku! Yo'qot, ko'zimdan yo'qot! Bir begunohga tuhmat qilgandan ko'ra o'lganim yaxshimasmi! — U birdan meni quchoqlab, yuzimni yuziga bosgancha hiqillab qoldi. — Endi nima qilamiz, jon bolam!

—Oyimning ko'z yoshi birpasda yuzimni jiqqa suv qilib yubordi.

—Nima qilamiz, o'g'lim! Bu sharmandalikka qandoq chidayman, o'g'iljonim! — Oyim madori qurigandek, sandiq ustiga muk tushib qoldi.

—Oradan ko'p o'tmay to'y bo'ldi. Sepkilli xola oyimni to'yga aytmadi. Biroq oyim bir tog'ora qushtili pishirdi. Hech nima bo'lmagandek, to'yxonaga chiqdiyu yelib-yugurib xizmat qilib ketaverdi.

—Kechqurun hovlining o'rtasida to'nka qo'yib gulxan yoqishdi. Sepkilli xolaning o'ziga o'xshab ketadigan sarg'ish yuzli Hakim akaga to'n kiygizib, salla o'ratishdi. gulxan atrofini uch marta aylantirishdi, karnay-surnay chalindi... Uy ichida ayollar, Zebi xola dutor chertgan, xotinlar tortishmachoq qilgan... Xo'ja, Toy, Vali, men — to'rtovlashib tortishmachoq bilan ovora bo'lib turgan xotinlar orasiga sho'ng'iymizu cho'ntakni shirinlikka to'ldirib chiqamiz... Keyin to'yxonaning qorong'i burchaklarida rosa bekinmachoq o'ynadik.

—O'sha kuni kech yotgan bo'lsam ham juda erta uyg'ondim. Endi tong otgan ekan. Qarasam, uyda hech kim yo'q. Demak, to'yxonaga chiqishgan.

—Men ham yuzimni "mushuk yuvish" qildimu o'sha yoqqa chopdim. Bo'lmasachi, hozir «kelin salom» bo'ladi-da.

—Xayriyat, «kelin salom»ga kech qolmabman. Hovli betkayida Sepkilli xolaning qarindosh-urugiari, to'yda xizmat qilganlar to'planib turishibdi. Erkaklar kam, xotinlar ko'p. Faqat oyim ko'rinmaydi. Hovli etagidagi to'nkarib qo'yilgan qozon orqasida g'o'laga minib o'tirgan Valini ko'rib, imlab chaqirdim.

—Bir mahal otin xola (Sepkilli xolaning qo'li egriligidan shikoyat qilgan, biz bilan folbinnikiga borgan xuddi o'sha semiz otin xola) oq sholro'mol yopingan, atlas ko'ylagi ustidan oldiga uqa tutilgan nimcha kiygan kelinchakni yetaklab ostonaga olib

chiqdi. Parda orqasidan kelinning yuzi yaxshi ko'rinmas edi. Biroq yaqinroqda turgan notanish xotinning ko'zi o'tkir ekan.

—Vuy, muncha chiroyli! — dedi qattiq shivirlab. —

Bir qoshiq suv bilan yutgudek-a!

—Baxti bor ekan sariq mashakni! — dedi boshqasi unga javoban.

Otin xola bir tomoq qirib oldi-da, ovozi boricha baqirdi:

—Assalomu alaykum, kelin salo-o-om!

Kelinchak ohista bosh egdi. Hovlidagilar chekka-chekkadan ma'qullab javob qilishdi:

—Baraka topsin!

—Rahmat.

—Qo'shgani bilan qo'sha qarisin.

Otin xola yana bir marta tomoq qirib, ovozini sozlab oldi-da, boyagidan ham balandroq hayqirdi:

—Assalomu alaykum, kelin salo-o-o-m!

Karmonni katla ochgan

Ayamay pulni sochgan,

Qorinlari qopday,

Mo 'ylovlari shopday

Qaynotasiga salo-o-m!

Odamlar chekka-chekkadan kulib yuborishdi. Isroil mo'ylov hovli etagidagi xonadan karnayga o'xshatib o'ralgan kattakon namatni qo'ltiqlab chiqdi. Hovli o'rtasidan pishillab o'tdi-da, namatni oborib kelinning oyog'i tagiga qo'ydi. Mo'ylovini g'olibona qiyofada bir buragan edi, xotinlar qiy-chuv solib kulib yuborishdi. Isroil mo'ylov uvali-juvali bo'linglar, deb fotiha o'qidi. Otin xola yana bir tomoq qirib oldi:

—Assalomu alaykum, kelin salo-o-o-om!

Tili bilan teng aylanadigan,

Xizmatiga shaylanadigan,

To'ydan quruq qaytmaydigan

So 'zlari moyday, yuzlari oyday,

Qaynonasiga salo-o-m!

Yana qahqaha ko'tarildi. Sepkilli xola qizarib-bo'zarib, odamlar orasidan o'tdi-da. kelin tomonga talpindi. Qo'lidagi bir dasta chinni kosani kelinning boshiga qo'ydi.

Otin xola tag'in davom etdi.

—Assalomu alaykum, kelin salo-o-o-m!

Dutorini sayratgan,

*Dilimizni yayratgan,
Zebi opaga salo-o-m!*

Zebi xola erkakcha yurish qilib yaqin borgan edi, ichkaridan tugun olib chiqishdi. Zebi xola tugunni olarkan, kelinning yelkasiga qoqdi.

—Baxtli bo'lg'in, qizim!

Otin xola u yoq-bu yoqqa qarab oldi-da, davom etdi.

—Assalomu alaykum, kelin salo-o-m! Biri biridan shirin, biri-biridan asal qaynsingillariga salo-o-m!

Hakim akaning ukasi yo'q. uchta singlisi bor edi. Uchovlari ikkita-ikkitadan piyola ko'tarib qatorlashib borishdi. Biriga atir, biriga sochiq, eng kichkina Saidaga ro'molcha tegdi...

Otin xola kelinning ro'molini o'nqlab qo'ydi-da, tag'in yangi kuch bilan hayqirdi:

—Assalomu alaykum, kelin salo-o-m! Oyog'i olti, qo'li yetti bo'lib xizmat qilgan, kelinning qo'lidan ishini oladigan, og'ziga oshini soladigan yon qo'shni-jon qo'shnilarga salo-o-o-m!

Oyim shu yerda ekanini endi payqadam. U odamlar orasidan rangi o'chibroq o'tdi-da, qandaydir, ishonchsiz qadamlar bilan kelin tomonga yura boshladi. Hatto ostona oldiga borganda bir qalqib ketgandek bo'ldi. Qo'lida hech nima yo'q edi. Biroq sekin-sekin zinadan ko'tarildi-yu, kelinning yuzidagi pardani qiya ochdi. Hovlidagi xotinlar pichir-pichirga tushib qolishdi.

—Nima qilyaptilar?

—Voy, o'lmasam!

Otin xolaning ham g'ashi keldi shekilli, dashnom berdi:

—Nomahramlar bor-a, poshsha!

—To'xtang, — dedi oyim negadir ovozi titrab.

Shosha-pisha kelinning qulog'idagi ziraklarni yecha boshladi.

—Ushlang buni! — dedi sirg'alarni kelinning qo'lga tutqazib. Keyin o'zining nimchasiga qo'l soldiyu kattakon oltin oybaldog'ini chiqardi. Qo'llari titragancha ikkalasini kelinning ikki qulog'iga taqdi.

—Niyat qilgandim, — dedi oyim otin xolaga qarab. — Shuni niyat qilib qo'yuvdim. — Shunday dediyu sekin egilib, kelinning peshonasidan o'pdi.

—Iloyo qo'sha qaringlar!

Oybaldoq shoi ro'mol tagidan ham yaraqlab ko'rinib turar, kelinning husniga husn qo'shib yuborgandek edi. Chekka-chekkadagi xotinlarning hayratli xitobi eshitildi:

—Vuy-y-y-y!

—Asl tillamikan?

—Nima, qalbakisini qilib esini yebdimi?

—Mana bundoq qo'shnilar bo'ladi jahonda!

Bir zum gangib qolgan otin xola ovozi boricha hayqirdi:

—Qilichdek o'g'illarni o'stirgan, to'yda yelib-yugurgan, oy desa, oydek, Xotam Toydek poshsha opasiga salo-o-m!

Oyim odamlar orasidan turtinib o'tdida, chekkaga chiqdi. Shundagina kelin tomonga o'girilib, mamnun jilmaydi... Uning ko'zida yosh bor edi.